

**«MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERLARINI  
TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY  
TENDENSIYALARI: XORIJ TAJRIBASI»**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**22.11.2023 yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH SO‘ZI</b> .....	<b>3</b>
O.X. Xamidov. MAKTABGACHA TA’LIM: MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.....	3
<b>1 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIMDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIM</b> .....	<b>5</b>
Azimov Yunus Yusupovich. MAKTABGACHA TA’LIM KLASTERINI TASHKIL ETISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	5
Rafiyeva Olima Abduraufovna. MAKTABGACHA TA’LIM — UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINING POYDEVORI .....	7
Bozorova Saodat Sobirjonovna. MAKTABGACHA TA’LIM- ERTANGI KUNGA ZAMIN..	10
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.	12
Chudakova Vira Petrovna. A creative approach and foreign experience in implementing the program “Managerial competence of managers in developing the psychological readiness of teachers for innovation activity” and “developing their competitiveness” in the context of improving the management system of preschool education .....	16
Жумашева Гулнара Хамидуллаевна, Аймбетова Даметкен Максетовна. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ .....	23
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, Хакимова Наргиза Супхановна. ОРГАНИЗАЦИЯ КЛАСТЕРОВ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	27
<b>2 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI</b> .....	<b>32</b>
Nizomova Shoxista Shodiyevna. BADIY ADABIYOTNING MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA .....	32
Shoxista Shodiyevna Nizomova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA XALQ O‘ZAKI IJODINING O‘RNI.....	33
Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna. KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING AHAMIYATI .....	35
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna, Fayzulloyeva Zulfizar Nutfillo qizi. MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI .....	38
Хамраева Нигора Абдуллаевна. ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ. ....	40
Shodiyeva Moxiniso Baxodirovna. KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O‘RGATISH.....	42
Shomurodova Dilnura. MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQ DOSTONLARNI O‘RGATISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI.....	43
Mehriddinova Laylo Mexridin qizi. YOSH AVLODNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING DIDAKTIK AHAMIYATI .....	46
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK- BAIY XUSUSIYATLARI.....	48
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI.....	51
Firuz NURULLOYEV, Shonazar G‘AYBULLAYEV. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMI SIFATINI INNOVATSION BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	53
Axmedova Dildora Qudratillayevna. MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI .....	55
Saidova Nodira Mustakimovna. “AVESTO” TADQIQIDA RAHIM VOHIDOV MAHORATI	57

## MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI

**Sharipova Maxbuba Baxshilloevna**  
*Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, PhD*

**Fayzulloeva Zulfizar Nutfillo qizi**  
*Buxoro davlat universiteti sirtqi bo'lim*  
*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 5-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion faoliyatning maktabgacha ta'lim tizimida tutgan o'rni, maktabgacha ta'limda innovatsion faoliyatning mohiyatini chuqur tahlil qilish orqali amaliyotga qo'llash ko'nikmalari shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida muammolarni bartaraf etishda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish haqida so'z boradi.

**Anatation:** In this article, the role of innovative activity in the preschool education system, the formation of practical skills through an in-depth analysis of the nature of innovative activity in preschool education, and the effective use of innovative approaches in solving problems in the educational process are discussed. the word goes.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль инновационной деятельности в системе дошкольного образования, формирование практических навыков посредством углубленного анализа характера инновационной деятельности в дошкольном образовании, а также эффективного использования инновационных подходов при решении задач в дошкольном образовании. Обсуждается учебный процесс.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, texnologiya, ijtimoiylashuv, radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan, lokal, modulli, tizimli, innovatsion faoliyat, subyekt, izlash, yaratish.

**Ключевые слова:** Инновация, технология, социализация, радикальная, модифицированная, комбинированная, локальная, модульная, системная, инновационная деятельность, субъект, поиск, создание.

**Key words:** Innovation, technology, socialization, radical, modified, combined, local, modular, systematic, innovative activity, subject, search, creation.

Maktabgacha ta'lim-uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich poydevori hisoblanadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab tarbiyalanuvchilarga bilim berish, ularni maktab ta'limiga tayyorlashda samarali metodlardan foydalanish asosiy vazifa qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim muassasidagi to'g'ri tashkil etilgan pedagogik-psixologik jarayon tarbiyalanuvchilarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni, axloqiy voqealarning umumiy ma'nosini anglab olishlarida yordam beradi. Bugungi kunda davlatimizning asosiy maqsadlaridan biri kelajak poydevori bo'lgan yoshlarni ma'naviy, madaniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy yetuk mustaqil fikrlovchi barkamol avlod qilib voyaga yetkazishdir. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limda yangi Pedagogik Texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta'limga bog'lash, har ikkisini tuzilishi va mazmuni jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini mujassamlashtirishga, mustaqil fikrlashga yo'llash uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, ma'nan yetuk, barkamol shaxslarga aylantiradi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Oliy ta'lim tizimida tahsil olib o'qituvchi –murabbiylik mutaxassisligiga tayyorlanayotgan har qanday bo'lajak kasb egasi mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish pedagogika fanining dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida pedagog-tarbiyachining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish «pedagogning innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'ldi. Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60 yillarida dastlab, AQSH va G'arbiy Evropa mamlakatlarida «ta'lim texnologiyasi» tushunchasi

e'tirof etilgan vaqtda paydo bo'ldi. O'sha vaqtdayoq Evropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirish natijasida vujudga keldi. Bu esa, pedagog-tarbiyachining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi. Pedagog-tarbiyachi innovatsion faoliyatining umumiy va alohida jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A.Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy-nazariy g'oyalarida keng ommaga yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan N.Azizxo'jaeva, J.Yo'ldoshev, B.Farberman, U.Nishonaliev, N.Sayidahmedov, M.Ochilov kabi olimlar ko'plab ishlarni amalga oshirganlar. Rossiyalik olim V.I.Slobadchikov shunday yozadi: «Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi, chunki bunday o'xshatish «Innovatsion faoliyat» termini ma'nosini sayozlashtirib yuboradi. Umuman olganda har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma'lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur. Bu amaliyotni konkret sub'ekt nuqtai nazaridan va amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, 80-yillarda pedagogik faoliyatni avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g'oyalariga muvofiq amalga oshirish va dasturlashtirilgan mustaqil malaka oshirishni tashkil etish tashabbusi ko'tarildi. Natijada, pedagog-tarbiyachilarning masofadan malaka oshirish tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. Innovatsion faoliyat-maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogining o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi.

Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta olishi kerak. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Xozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida ham innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida aynan maktabgacha ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, innovatsiya ma'lum bir faoliyat maydonidagi muammoni yechish uchun yangicha yondashuv demakdir. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijada avvalgi tizim takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'lib, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.G.T Boymurodova, N Tosheva. Boshlang'ich ta'limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. 2020
- 2.Boymurodova G. T. Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 5. – С. 29-34.
3. Boymurodova G. T. Development of Professional Competence in New Vocational Education //JournalNX. – С. 737-739.
- 4.Sh. Abdullayeva, D.A.Axatova Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004.- //b.

## **ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ.**

**Хамраева Нигора Абдуллаевна**

*Преподаватель Бухарского Государственного Университета  
кафедры дошкольного образования*

**Аннотация:** *Культура речи – это совокупность материальных и духовных ценностей, созданных человеческим обществом и (одновременно) характеризующих определенный уровень развития общества. Данная статья посвящена обучению детей культурной речи.*

**Ключевые слова:** *диалог, монолог, беглая речь, полилог*

**Annotatsiya:** *Nutq madaniyati - bu insoniyat jamiyati tomonidan yaratilgan va (shu bilan birga) jamiyat taraqqiyotining ma'lum darajasini tavsiflovchi moddiy va ma'naviy qadriyatlar to'plami. Ushbu maqola bolalarni madaniy nutqqa o'rgatishga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar:** *dialog, monolog, ravon nutq, polilog*

**Abstract:** *Speech culture is a set of material and spiritual values created by human society and (at the same time) characterizing a certain level of development of society. This article is devoted to teaching children cultural speech.*

**Key words:** *dialogue, monologue, fluent speech, polylogue*

Язык – показатель интеллектуального, нравственного развития человека, его общей культуры.

Духовная культура, по мнению Ю.В.Рождественского, «это, с одной стороны, совокупность общественно значимых идей и прецедентов деятельности, хранимых в виде знаковых произведений духовной культуры, а с другой – осведомленность людей в духовной культуре, ее использование».

Культура – это совокупность материальных и духовных ценностей, созданных человеческим обществом и (одновременно) характеризующих определенный уровень развития общества.

В более чем 3,5 тысячах языков мира многогранно отражаются все достижения науки, техники, искусства. Интерес к родному языку, стремление к совершенному владению его письменной и устной формами характеризует, как правило, культурного человека. Нет такой сферы общения, где бы не требовалось хорошее владение языком и умение использовать языковые явления в разных речевых ситуациях.

Однако в настоящее время многие ученые, писатели, люди, которые любят свой язык, говорят о «катастрофическом» состоянии русского языка. Следует, по-видимому, говорить не о катастрофическом состоянии русского языка, а о том, что продолжает увеличиваться пропасть между образцовыми носителями русского языка и теми слоями общества, языковая культура которых недопустимо низка. Современная молодежь, впитавшая языковые явления, находящиеся за пределами литературного употребления, жаргон или современные убогие тексты рок-шлягеров, это люди, которые не способны владеть родным языком, хотя бы на среднем уровне. Многие общественные деятели также не являются образцом в области владения литературным языком. Эти люди, плохо владеющие словом, не придают культуре речи никакого значения.